



IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi

Farg'ona davlat universiteti doktoranti, i.f.f.d., dotsent ORCID: 0000-0003-1132-6439

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotda kechayotgan innovatsion o'zgarishlar sharoitida to'qimachilik korxonalarida raqobatbardoshlikni boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Innovatsion rivojlanishning global tendensiyalari, raqamli transformatsiya, texnologik modernizatsiya va resurslardan samarali foydalanish kabi omillarning to'qimachilik tarmog'i raqobatbardoshligiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, to'qimachilik sanoati, innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya, resurslarga asoslangan yondashuv, innovatsion salohiyat, qiymat zanjiri, strategik boshqaruv, texnologik modernizatsiya, inson kapitali, raqobat ustunliklari, barqaror rivojlanish.

Annotation: The article analyzes the scientific and theoretical foundations of managing the competitiveness of textile enterprises in the context of ongoing innovative changes in the economy. It highlights the impact of global innovation development trends, digital transformation, technological modernization, and efficient resource utilization on the competitiveness of the textile sector.

Keywords: competitiveness, textile industry, innovation development, digital transformation, resource-based approach, innovation potential, value chain, strategic management, technological modernization, human capital, competitive advantages, sustainable development.

Annotatsiya: V state analiziruyutsya nauchno-teoreticheskie osnovy upravleniya konkurentosposobnostyu tekstilnykh predpriyatiy v usloviyax proisxodyayux innovatsionnykh izmeneniy v ekonomike. Osvesheno vliyaniye globalnykh tendensiy innovatsionnogo razvitiya, sifrovoy transformatsii, texnologicheskoy modernizatsii i effektivnogo ispolzovaniya resursov na konkurentosposobnost tekstilnoy otrasli.

Klyuchevye slova: konkurentosposobnost, tekstilnaya promyshlennost, innovatsionnoe razvitie, sifrovaya transformatsiya, resursno-orientirovannyy podxod, innovatsionnyy potentsial, seepochka sozdaniya stoimosti, strategicheskoe upravlenie, texnologicheskaya modernizatsiya, chelovecheskiy kapital, konkurentnyye preimushchestva, ustoychivoe razvitie. Innovatsion iqtisodiyot mamlakat aholisining turmush darajasini oshirishga xizmat qiluvchi ilm-fanni rivojlantirish, ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanish, ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqishga joriy qilish, iste'molchiga yanada yaxshi mahsulot va xizmatlarni taqdim etish, yangi turdagi mahsulot(xizmat)lar ishlab chiqishni talab qiladi.



KIRISH

Korxonalarni bozor holatiga moslashtirib borishi, ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, innovatsiyalar va fan-texnika yutuqlarini joriy etishga yo'naltirish, ishlab chiqarish ko'lamini oshirish, tovarlar assortimentini kengaytirish, foyda tushumlarini ko'paytirishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.


Bugungi kunda iqtisodiyotimizning barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

Innovatsion iqtisodiyot rivojlangan sari mamlakatda o'zgarishlarga bo'lgan qiziqish ortadi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida innovatsion ishlanmalar bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi, xar bir shaxs innovatsion g'oya yordamida tadbirkorlik bilan shug'ullanishga intiladi, xar bir tarmoq xalqaro darajadagi korxonalar bilan raqobatlasha olish darajasiga erishadi. Hozirgi vaqtda innovatsiya bozor ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish, ishlab chiqarish xarajatlarini raqobatchilarga nisbatan pasaytirish hisobiga tadbirkorning oladigan foydasini ko'paytirishning asosiy vositasi bo'lib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M.Porter modeli sodda bo'lganligi sababli juda keng qo'llaniladi. Beshta raqobat kuchlarning o'zaro ta'siri oxir-oqibatda tovar bozorining rentabelligini belgilaydi. Modeldan asosan, korxona raqobatchilik strategiyasini ishlab chiqishda, raqobat ustunligini ta'minlash bo'yicha strategik reja tuzishda foydalaniladi.

Sof raqobat bozorida M.Porter modeli eng asosiy raqobat kuchlari sifatida ifoda etilsa, boshqa turdagi bozorlarda yana bir kuch davlatning proteksionizm, soliq kabi siyosati raqobat kuchi sifatida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, raqobat muhitini tashkil qiluvchi asosiy kuchlar turli bozorlarda turlicha bo'lishi mumkin.



4-rasm. Tarmoqda raqobatbardoshlikni belgilab beruvchi determinantlar guruhi, M.Porter modeli¹⁶

¹⁶ Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов/ Пер. с англ. — М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. — 454 с.



Raqobatbardoshlikni mamlakat, tarmoq, korxona, mahsulot, kadrlar bo'yicha bog'liqliklarga bo'lish mumkin. Birgina, «Korxona raqobatbardoshligi» va «Mahsulot raqobatbardoshligi» o'rtasida o'zaro yaqin aloqalar mavjud, chunki korxona raqobatbardoshlik darajasiga erishishda mahsulot raqobatbardoshlik xususiyati bevosita bog'liq hisoblanadi. Mahsulot raqobatbardoshligini tasniflashda ham muayyan ta'rif ishlab chiqilmagan, N.V.Yeremeeva va S.L.Kalachev tadqiqot ishlarida "Mahsulot raqobatbardoshligi murakkab xususiyatlar majmuidir, mahsulotlarning sifati (iste'mol qiymati), iste'mol bahosi, sotuvchi korxonaning marketing va tijorat faoliyati samaradorligi, iste'molchini mahsulotning tashqi ko'rinishlarga va sotuvchi korxonaning faoliyatiga ma'lum reaksiyasi hisoblanadi¹⁷" deb ta'rif berishgan bo'lsa, X.A.Fasxiev esa "Raqobatbardosh mahsulot iste'molchini qoniqtiradigan narxda raqiblarga o'xshash analoglardan ustun bo'lishi kerak"¹⁸ deb hisoblaydi.

Mahalliy tadqiqot ishlarida raqobatbardoshlikka erishish va raqobat ustunliklarini ta'minlash bo'yicha salmoqli ishlar bajarilgan. Har bir korxonaning doimiy maqsadi raqobatbardoshlikka erishishdir. To'qimachilik korxonalari nafaqat raqobatbardoshlikka erishish choralari ko'rishi, balki raqobatbardoshlikni boshqarish tizimini ham ishlab chiqishlari bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshqaruv bu sub'ektlar, korxonalar tomonidan kishilarga va iqtisodiy ob'ektlarga kutilayotgan natijaga erishish, ularni xatti-xarakatini yo'naltirish maqsadida ularga ongli ta'sir ko'rsatishdir. Demak, raqobatbardoshlikni boshqarish tizimi muayyan boshqaruv mexanizmini ishlab chiqishni talab etar ekan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobatbardoshlikni boshqarish tizimi muayyan prinsiplar asosida amalga oshirilishi hamda ushbu prinsiplardan qat'iy qoida sifatida korxonalar foydalanishi zarur. Raqobat tushunchasidan va ilgari ko'rib chiqilgan boshqa ob'ektlarni boshqarish prinsiplaridan kelib chiqib, mahsulot va korxonalarning raqobatbardoshligini boshqarish I.Ansoff tomonidan taklif etilgan quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirilishi mumkin¹⁹:

korxona raqobatbardoshligini boshqarish nazariyasi va amaliyotining birligi prinsipi, bu prinsipga muvofiq har qanday boshqaruv qarori raqobatbardoshlikni boshqarish mazmuniga, prinsiplariga va usullariga mos kelishi va amaliy vazifalardan kamida bittasini hal qilishi zarur;

tizimni boshqarish prinsipi, bu prinsip ba'zi ob'ektlarni tizim sifatida ko'rib chiqilishini ta'minlaydi, tizimli yondashuv menejment tizimidagi barcha kerakli o'zaro munosabatlarni va o'zaro ta'sirlarni hisobga olish imkonini beradi, maqsadlarni belgilashda boshqaruv mexanizmlarini boshqarishga imkon beradi;

menejmentning ilmiy asoslanganligi prinsipi - bu prinsip raqobatbardoshlikni boshqarish tizimini shakllantirishda boshqaruv tizimining barqarorligini

¹⁷ Еремеева Н.В., Калачев С.Л. Конкурентоспособность товаров и услуг. - М.: Колосс, 2006. - с. 186.

¹⁸ Фасхиев Х.А. Маркетинг в автомобилестроении. - М.: Центр маркетинговых исследований и менеджмента, 2001. - с. 32.

¹⁹ Ансофф И. Новая корпоративная стратегия / Пер. с англ. - СПб.: Питер Ком, 1999. - 391-393 с.



ta'minlaydigan iqtisodiy qonunlar va rivojlanish modellarini, ilmiy yondashuvlarni va modellashtirish usullarini qo'llashni nazarda tutadi;

ob'ektlarni darajali boshqarish prinsipi - bu prinsip korxonalarning samaradorligi, ahamiyatliligi, miqyosi, xavf darajasini belgilashda ob'ektlarning ahamiyati, vazni, darajasini aniqlashni talab qiladi, chunki korxonaning resurslari har doim cheklangan, shuning uchun birinchi navbatda ular raqobatbardoshlikni oshirishning eng muhim muammolarini hal qilishlari kerak;

o'zgaruvchanlik prinsipi, ushbu prinsip voqealarni rivojlantirishning muqobil variantlarini yaratish imkonini beradi;

korxona raqobatbardoshligi ustunligini saqlash va rivojlantirish prinsipi - bu prinsip boshqaruv ob'ektining kuchli va zaif tomonlarini namoyon qilishni talab qiladi, buning asosida samarali raqobat strategiyasini shakllantirish va raqobatchilar bilan taqqoslaganda ushbu korxona faoliyatining bir yoki bir nechta sohasidagi ustunliklariga erishish mumkin bo'ladi;

ish tutish prinsipi, ushbu prinsip korxona raqobat strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini nazorat qilinishini hamda belgilangan muddatlarda tartibga solinishini ta'minlaydi.

P.S.Zavyalov esa raqobatbardoshlikni boshqarish tizimining tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini quyidagi asosiy prinsiplar asosida ishlab chiqishni taklif qildi:²⁰

umumiylik prinsipi, raqobat ustunligiga ega bo'lish uchun boshqaruv tizimining alohida yo'nalishlari korxonaning barcha funksional bo'linmalariga aylanishi kerak;

tizimlilik prinsipi, rivojlanayotgan tizimlarni tahlil qilish metodologiyasiga asoslangan raqobatbardoshlikni boshqarish tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish kerak;

konstruktivlik prinsipi, tizim raqobatbardoshlikni boshqarishning strategiyasi va taktikasini shakllantirishi, ularning tanlovini oqlash va ularni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqish.

Sof raqobat sharoitida korxonalar samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun raqobatda ustunlik jihatlariga ega bo'lishlari talab etiladi, ustunlikka erishish innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali iste'molchining yashirin talabini qondirish salohiyatiga ega bo'lishdir.

To'qimachilik sanoatining jadal rivojlanishi, jahon bozorida raqobatning keskinlashuvi va eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini boshqarish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tarmoqning iqtisodiyotdagi o'rni nafaqat qo'shimcha qiymat yaratish va bandlikni ta'minlash bilan belgilanadi, balki global to'qimachilik zanjiriga chuqur integratsiyalashuv, xalqaro sifat standartlariga moslashuv va texnologik modernizatsiya jarayonlari bilan hambog'liqdir. Shu bois, to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini baholash uslubiyotini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy talablar, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi,

²⁰ Завьялов П.С. Конкурентоспособность и маркетинг. // Российский экономический журнал. – 1995. – №12. 50-55 с.



logistika tizimining transformatsiyasi va ekologik me'yorlarning kuchayishi fonida dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida qaraladi.

Raqobatbardoshlik tushunchasi ko'plab iqtisodiy maktablarda turlicha talqin etilgan bo'lib, bugungi kunda u korxonaning bozorda barqaror faoliyat yuritish, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va iste'molchi ehtiyojiga tezkor javob berish qobiliyati bilan tavsiflanadi. An'anaviy yondashuvlarda raqobatbardoshlikni baholash moliyaviy ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilgan bo'lsa, zamonaviy menejment nazariyasi bu jarayonni ko'p mezonli, kompleks va integratsion model sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki to'qimachilik sanoati kabi ko'p bosqichli va texnologik bog'liqligi yuqori bo'lgan tarmoqlarda raqobatbardoshlikni faqat iqtisodiy natijalar orqali baholash yetarli bo'lmay qolmoqda.

Zamonaviy ilmiy manbalarda raqobatbardoshlikni baholashning asosiy yondashuvlari sifatida Porterning "besh kuch" modeli, resurslarga asoslangan yondashuv, qiymat zanjiri modeli va innovatsion rivojlanish yondashuvi ajratib ko'rsatiladi.

Ushbu nazariyalar to'qimachilik korxonalarining bozor muhitidagi o'rnini, ichki imkoniyatlarining holatini va tashqi omillar ta'sirini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq to'qimachilik korxonalarida raqobatbardoshlikni baholashning mavjud modellaridan foydalanish ko'plab holatlarda yetarli natija bermaydi, chunki tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari — texnologiyalarning tez yangilanishi, ekologik talablarning keskin kuchayishi, logistika xarajatlari ulushining yuqoriligi va mahsulot dizayni bo'yicha talablarning dinamik o'zgaruvchanligi baholash tizimiga qo'shimcha mezonlarni kiritishni taqozo etadi.